



## SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTLARIDA YUQUMLI KASALLIKLAR VA SHIFOXONA ICHKI INFEKSIYALARINI OLDINI OLISH

*Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li*

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

*Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti fakulteti*

*3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilari turli xil yo'llar bilan rivojlanadi. Ularning ko'pi (dizenteriya, bezgak va ko'pgina gijjali invaziyalar) qadim-qadimdan ma'lum bo'lib, qator kasalliklar odamga uy va yovvoyi hayvonlardan yuqadi. Kasallikning bir turi faqat odamga xos bo'lgan holda namoyon bo'lsa (antroponoz kasalliklar), boshqalari – odamlar va hayvonlar uchun umumiy hisoblanadi (zoonoz kasalliklar). Ko'p kasalliklar qo'zg'atuvchilari saprofitlardan paydo bo'lgan bo'lib, keyinchalik ular patogen parazitlarga aylangan (masalan, vabo). Bunday jarayon, ya'ni yuqumli kasalliklarning vujudga kelishi hozirgacha davom etmoqda (masalan, OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi). Shifoxona ichki infeksiyalar butun jahon bo'ylab sog'liqni saqlashning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Bu maqolada biz yuqumli kasalliklar va shifoxona ichki infeksiyalarni keltirib chiqaruvchi omillar va ularning oldini olish to'g'risida suhbatlashamiz.

**Kalit so'zlar:** Yuqumli kasalliklar, infeksiyon jarayonlar, infeksiya tashuvchanlik, yuqumli kasalliklar davrlari, shifoxona ichki infeksiyalari, infeksiyon sun'iy yo'l bilan yuqishi, shifoxona ichki infeksiya kasalliklari darajasini pasaytirish, shifoxona ichki infeksiyalarini oldini olish.

**Аннотация:** Возбудители инфекционных заболеваний распространяются разными путями развивается. Многие из них (дизентерия, малярия и многие глисты инвазии) известны с древнейших времен, и ряд заболеваний передаются человеку от домашних и диких животных. Тип заболевания если оно проявляется только по-человечески (антропозные болезни), другие – общие для человека и животных (зоонозные заболевания). Они являются возбудителями многих заболеваний. возникли из сапрофитов, а позднее стали патогенными стали паразитами (например, холера). Такой процесс, т. вспышки инфекционных заболеваний продолжают и по сей день (например, СПИД – синдром приобретенного иммунодефицита). Внутрибольничные инфекции являются одной из важнейших проблем здравоохранения во всем мире. В этой



статье мы поговорим о факторах, вызывающих инфекционные заболевания и внутрибольничные инфекции, и их профилактике.

**Ключевые слова:** Инфекционные болезни, инфекционные процессы, передача инфекции, периоды инфекционных заболеваний, внутрибольничные инфекции, искусственная передача инфекции, снижение уровня внутрибольничных инфекционных заболеваний, профилактика внутрибольничных инфекций.

**Annotation:** The causative agents of infectious diseases spread in different ways develops. Many of them (dysentery, malaria and many worms invasions) have been known since ancient times, and a number of diseases transmitted to humans from domestic and wild animals. A type of disease if it is manifested only in a human way (anthroponosis diseases), others - common to humans and animals (zoonotic diseases). They are the causative agents of many diseases arose from saprophytes, and later they became pathogenic became parasites (for example, cholera). Such a process, that is outbreaks of infectious diseases continue to this day (for example, AIDS - acquired immune deficiency syndrome). Nosocomial infections are one of the most important health problems worldwide. In this article, we will talk about the factors that cause infectious diseases and hospital internal infections and their prevention.

**Key words:** Infectious diseases, infectious processes, transmission of infection, periods of infectious diseases, hospital internal infections, artificial transmission of infection, reducing the level of hospital internal infectious diseases, prevention of hospital internal infections.

### KIRISH

Infeksiya (lotincha infectio – ifloslanish, yuqish degan ma’noni anglatadi) – bu kasallik tug’diruvchi mikroorganizmlarning organizmga kirishi bo’lib, bunda organizm bilan ular orasida murakkab jarayonlar kompleksi rivojlanadi. Infeksion jarayon – bu ma’lum tashqi muhit sharoitlarida kasallik qo’zg’atuvchilari ta’siriga javoban organizmda yuzaga keladigan fiziologik himoya va patologik reaksiyalar majmuidir. Biologik nuqtai nazardan infeksiion jarayon parazitizmning o’ziga xos bir ko’rinishi hisoblanadi va bunda har xil yashash sharoitiga ega bo’lgan ikki organizm kurashadi. Yuqumli kasallik – bu biologik, kimyoviy, klinik va epidemiologik tartibdagi o’zgarishlar va turli belgilar shaklida yuzaga keladigan infeksiion jarayon rivojlanishining eng oxirgi davridir. Mikrobnining xususiyatlari,



organizm holati, tashqi muhit sharoitlari hamda ijtimoiy omillarga bog‘liq. Bular ta’sirida infeksiyaning quyidagi ko‘rinishlari shakllanadi:

**Manifest** (ekzogen) infeksiya – bunda kasallik belgilari aniq namoyon bo‘ladi va klassik ko‘rinishiga mos keladi. Infeksiyaning o‘tkir va surunkali shakllari yaxshi o‘rganilgan. Bunda tipik va atipik kechadigan infeksiyalar farqlanadi. Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya va og‘ir ko‘rinishlarda kechishi mumkin. Bu infeksiya ko‘p hollarda ijobiy yakunlanadi (bemor sog‘ayadi).

**Subklinik** (uncha bilinmaydigan) infeksiya – bu aniq klinik ko‘rinishga ega bo‘lmagan kasallik ko‘rinishidir. Bunday vaqtda kasallikni aniqlash juda qiyin kechadi, bu esa kasallikning uzoq vaqt cho‘zilib ketishiga sabab bo‘ladi. Infeksiyaning bu shakli juda muhim epidemiologik ahamiyatga ega. Chunki bunda bemor kasallik manbai sifatida mehnat qobiliyatini saqlagan holda infeksiya tarqatib yuradi.

**Inapparant** (belgilsiz) infeksiya – kasallikning klinik belgilsiz kechadigan shaklidir. Faqat ular kasallikka xos bo‘lgan qo‘shimcha immunologik (bunda spetsifik antitelolarning oshishi kuzatiladi) va boshqa laboratoriya tahlillarining o‘zgarishlari asosidagina aniqlanishi mumkin.

**Autoinfeksiya** (endogen) – organizmning asosiy vazifalarini boshqarib turgan fiziologik mexanizmlar (immunitet, almashinuv jarayonlari va b.)ning buzilishi natijasida rivojlanadigan kasallik.

**Latent** infeksiya – uzoq (6 oydan ortiq) davom etadigan yuqumli kasallik bo‘lib, ko‘dinch a ijobiy natija bilan yakunlanadi. Bu kuchsiz immun javobiga ega bo‘lgan kishilar organizmida uchraydi. Uzoq cho‘ziladigan kasallikning shakllanishidagi asosiy sabablardan biri– bu mikroorganizmlar o‘zgaruvchanligidir.

**Sust** infeksiya – organizmga viruslar (virionlar, prionlar) tushishi natijasida rivojlanadigan yuqumli kasallikdir. Bu infeksiya uzoq (oylar, yillar) davom etadigan yashirin davrga egaligi, sekin rivojlanib borishi, to‘qima va a‘zolarining o‘ziga xos zararlanishi, onkogen ta’siri va ko‘pincha o‘lim bilan tugashi bilan xarakterlanadi. Infeksiya tashuvchanlik – infeksiya tashib yuruvchilar (bakteriya, parazit, virus tashuvchanlik) sog‘lom bo‘lishlari mumkin (tranzitor tashuvchanlik). Bunda organizmda kasallik qo‘zg‘atuvchisining bo‘lishiga qaramay nafaqat kasallik belgilari, balki immunologik o‘zgarishlar ham kuzatilmaydi. Yuqumli kasallik yakunida 3 oygacha kasallik qo‘zg‘atuvchisining topilishi o‘tkir rekonvalessent deb yuritiladi, 3 oydan oshsa surunkali deyiladi.

**Reinfeksiya** – mazkur mikrobn ing organizmga qayta tushishi natijasida kasallikning yana rivojlanishidir. Superinfeksiya – birlamchi mikrobn ing



organizmda yo‘qolmasdan turib qaytalanishidir. Yuqumli kasalliklarga qator xususiyatlar xos bo‘lib, shular orqali ular umumsomatik (yuqumli bo‘lmagan) kasalliklardan farq qilinadi. Bularga quyidagilar kiradi: etiologik xususiyati (yuqumli kasallikning o‘zining spetsifik qo‘zg‘atuvchisiga egaligi); epidemiologik xususiyati (yuqumliligi); klinik xususiyati (kasallikning davrlar bilan kechishi); immunologik xususiyati (immunitet paydo bo‘lishi).

**Virulentlik** – patogenlik darajasidir. Virulentlik faqat tirik hujayralarga xos bo‘lib, tajribada shartli qabul qilingan birliklar – Dlm (Dosis letelis minima – o‘limga sababchi bo‘luvchi minimal doza) bilan o‘lchanadi. Bu ma‘lum vaqt ichida ma‘lum bir usulda tajriba hayvoniga yuborilganda uni o‘limga olib keladigan eng kam miqdordagi mikroblarga teng bo‘lgan miqdordir. Bunda o‘lgan hayvonlar soni 95% dan kam bo‘lmasligi kerak. Mikrobnining virulentligi o‘zgarib turishi mumkin (infeksion jarayon mobaynida yoki antibakterial terapiyada).

**Invazivlik** – bu mikroorganizmning to‘qima hamda a‘zolariga kira olish va ularda tarqalish xususiyatidir. Bu xususiyat ularning gialuronidaza va neyraminidaza kabi fermentlar ishlab chiqarish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu fermentlar qo‘shuvchi va boshqa to‘qimalar o‘tkazuvchanligini buzadi va mikrobnining organizmda tarqalishi uchun sharoit yaratadi.

Yashirin davr. Bu davr mikrobnining organizmga tushgan paytidan boshlab kasallikning dastlabki belgilari paydo bo‘lgunga qadar o‘tgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu vaqtda mikroblar organizmda ko‘payadi va tarqaladi.

Prodromal davr. Bu davrda kasallikning dastlabki belgilari kuzatiladi. Bular holsizlik, haroratning ko‘tarilishi, uyquning buzilishi va ishtahaning pasayishi kabilar bo‘lib, ular ko‘pgina yuqumli kasalliklar uchun umumiydir. Shuning uchun bu davrda kasallikka aniq tashxis qo‘yish ancha qiyin bo‘lishi mumkin. Lekin ayrim yuqumli kasalliklarda prodromal davrdayoq kasallikka xos bo‘lgan asosiy belgilarni ko‘rish mumkin. Masalan, qizamiqning prodromal davrida uchraydigan kataral belgilar, chinchechakda terida o‘ziga xos joylashgan toshmalar, virusli gepatitda – kataral, dispeptik, artralgiik, astenovegetativ yoki ularning birga uchrashi kasallikka tashxis qo‘yishda hal qiluvchi belgilar bo‘lib hisoblanishi mumkin. Kasallikning avj olish davri. Bu davrda kasallikka xos bo‘lgan barcha belgilar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Klinik belgilarni to‘g‘ri baholash uchun ularni kardinal fakultativ va umumiy belgilarga ajratish zarur. Kardinal belgilar kasallik uchun xos bo‘lgan asosiy belgilardir. Masalan, qoqsholda trizm (chaynash mushaklarining tarangligi va tortishib qisqarishi), botulizmida diplopiya (ko‘zga buyumlarning ikkita bo‘lib ko‘rinishi) va ptoz (yuqori qovoqning osilishi) kardinal belgilar hisoblanadi.



Fakultativ belgilar ham kasallik uchun xos belgilar hisoblansa-da, ular boshqa ayrim kasalliklarda ham uchrashi mumkin. Masalan, dizenteriyada kuzatiladigan shilimshiq va qon aralash ich ketishi salmonellozda ham kuzatilishi mumkin. Umumiy belgilar ko'pgina kasalliklarda kuzatiladi (bosh og'rg'i, bosh aylanishi, uyquning buzilishi va hokazolar). Kasallikning avj olish davrida ichki a'zolarida o'zgarishlar paydo bo'ladi, ya'ni patologik jarayon ularni ham qamrab oladi. Bu davrda laboratoriya tahlillari va instrumental ko'rsatkichlarda o'ziga xos o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Shifoxona ichki infeksiyalar butun jahon bo'ylab sog'liqni saqlashning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Bularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri juda katta. Zamonaviy davolash-diagnostika texnologiyalarining rivojlanishiga qaramay, IBD muammosi tibbiy va ijtimoiy ehtiyojni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'yadi. Bizning va xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, shifoxona ichki infeksiyalari kasalxonaga yotqizilgan odamlarning 5-20 foizida uchraydi. Shifoxona ichki infeksiyalarining hozirgi o'sishi va rivojlanishi quyidagi omillarga bog'liq:

- Yirik shifoxona komplekslarini yaratish.
- Kasalliklarning kundalik va yaqin o'zaro ta'siri.

Yuqumli qo'zg'atuvchilarning kuchli va sun'iy uzatish mexanizmini shakllantirish. Bu invaziv davolash va diagnostika usuliga bog'liq. Davolash va diagnostikada sterilizatsiyaning maxsus usullarini talab qiluvchi murakkab jihozlardan foydalanish ham o'z samarasini bermoqda.

- Yuqumli qo'zg'atuvchilarning yuqish mexanizmining faoliyati. Ayniqsa, davolanish muassasalarida kasalliklar va shifokorlarning yaqin o'zaro ta'sirida uy-ro'zg'or aloqasi havo orqali tarqalishi mumkin. Hali aniqlanmagan yuqumli kasallik bilan kasalxonaga yotqizilgan shaxs infeksiyaning asosiy manbai hisoblanadi

Majburiy patogen mikroorganizmlarni rag'batlantirish tufayli. Bu guruhga "an'anaviy" yuqumli kasalliklar-bolalar kasalliklari, ichak kasalliklari, HBV, HSV va boshqalar kiradi. ga tegishli. Ushbu kasalliklar shifoxona ichki infeksiyalarining 15% ni tashkil qiladi. Toza shifoxonada patogenlar quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- kasalxonaga patogen agentning tashuvchisi kirishi;
- kasalxona xodimlari orasida patogenning tashuvchisi bo'lsa;
- kasallarga tashrif buyuruvchilar yoki sovg'a qilingan kiyim-kechak va oziq-ovqat orqali;
- Shartli patogen mikroorganizmlar, shuningdek, oddiy inson mikroflorasiga kiritilganlar sabab bo'ladi. Bu guruhga shartli patogen mikroorganizmlar keltirib



chiqaradigan kasalliklar kiradi. Bu yiringli-yallig‘lanish kasalliklari bilan belgilanadi. Sabablari: stafilokokklar, streptokokklar, grammusbat bakteriyalar. Ba’zi hollarda nozokomial kasalliklar psevdomonadalar, legionellalar, rotoviruslardan kelib chiqadi. Siydik chiqarish yo‘llarining patologiyasi, gramm-manfiy mikroorganizmlar tufayli, ko‘k yiringli tayoqchalar pastki nafas yo‘llarining infeksiyasini keltirib chiqaradi. Psixiatriya shifoxonasida ichak infeksiyasi, gastroenterologik shifoxonada chelinobakterioz va boshqalar yuzaga keladi. Onkologiya shifoxonasida, OIV kasalliklari bo‘limlarida ekzogen kasalliklarning mavjudligi LPUni nafaqat real yo‘llar bilan, balki sun‘iy, sun‘iy, invaziv va davolash muolajalari bilan bog‘liq holda yuborish mexanizmidir. Stafilokokk va streptokokk infeksiyalari tarqalishida infeksiyaning aerozol orqali uzatilishi muhim o‘rin tutadi. Yuqumli havo legionellyozni keltirib chiqaradi. Choynab ham anafilokokk rivojlanishining omili hisoblanadi. Maishiy yuqish gram-manfiy bakteriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklar bilan bog‘liq.

Transmissiya omillari: Ifloslangan asboblardan, nafas olish apparatlari, ishchilarning ifloslangan qo‘llari va boshqalar. Etiologik vositalardan kelib chiqqan infeksiya oziq-ovqat orqali yuqadi. Ko‘krak suti bilan oziqlanadigan yosh chaqaloq onadan infeksiyani yuqtirishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasini buzish, agar oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ishlaydigan ishchilar infeksiyani tashuvchisi bo‘lsa, ichak infeksiyalari paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Infeksion sun‘iy yo‘l bilan yuqishining ta’siri kuchaymoqda. Biz diagnostika va davolash texnologiyalarining haqiqiy agressiyasiga duch kelyapmiz. Parenteral yuqish iflos shprits va ignalardan foydalanganda, qonga kontaminatsiyalangan dorilarni kiritishda sodir bo‘ladi. Tibbiyot xodimlari tomonidan antisepsis va aseptika qoidalariga rioya qilmaslik, asboblarni noto‘g‘ri dezinfeksiya qilish shunday holatga olib keladi. Sun‘iy zarardan himoyalashning oldini olish

- bir bir marta ishlatiladigan asboblardan foydalanish
- stomatologiya muassasalarining ishlashini nazorat qilish
- STK tizimini kengaytirish va ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish
- qon quyish stansiyalarida yangi yuqori sezgir diagnostika usullarini joriy etish
- endoskopik bo‘limlar ishini qat’iy nazorat qilish
- plazma va qonning boshqa tarkibiy qismlarini faqat juda zarur bo‘lganda quyish
- jarrohlik amaliyotiga kamroq shikastli usullarni joriy etish



Shifoxona ichki infeksiyasining oldini olishning umumiy shartlari

- Odamlarni emlash sxemasi va ko‘rsatkichlari bo‘yicha emlash
- Pseudomonas aeruginosa ga qarshi emlash
- zarur dieta
- eubiotiklar va takteriofaglardan foydalanish

Shifoxona ichki infeksiya kasalliklari darajasini pasaytirishning oldini olish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- dispanser nazorati vaqtida AIni aniqlash va ro‘yxatga olish
- har xil turdagi statsionar bemorlarda xavf guruhlari va xavf omillarini aniqlash
- ShII kasalliklarining epidemiologik tahlili
- tibbiyot xodimlarining maxsus profilaktikasini o‘tkazish

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida aholi salomatligi, jumladan, immunitet tanqisligi virusini chaqiradigan kasallik profilaktikasi, diagnostikasi hamda davolashda ijobiy natijalarga erishildi. Biroq shunga qaramay, ushbu yo‘nalishda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Ana shu muammolarni samarali hal etish maqsadida Prezidentimiz tomonidan yana bir muhim hujjat — “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror aholi salomatligini ta‘minlash bo‘yicha galdagi dolzarb hamda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgani, kamchiliklarni bartaraf etish, ayniqsa, kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilishga alohida urg‘u berilgani bilan ham muhim ahamiyatga ega. Zero, bu kasallikni yuqtirishning yo‘llari kam emas. Shulardan bittasi — shifoxonadagi ichki infeksiyalardir. Ochig‘ini aytish kerak, bugun “Tishim og‘riyapti ,tishimni oldiraman deb SPID yuqtiribdi” yoki “Kasalxonada bir dardi ikki bo‘libdi”, degan gaplar qulog‘imizga chalinib turadi. Qarorda respublikadagi OITS bilan kasallanishning oldini olish choralari bilan bir qatorda, shifoxona ichki infeksiyalari profilaktikasi muammolarining yechimi ham o‘rin olgan. Shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish orqali nafaqat OIV infeksiyasi, balki kasalxona sharoitida yuqishi mumkin bo‘lgan kasalliklar, xususan, virusli gepatitning V, S turlarining oldini olishga imkoniyat yaratiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. P o k r o v s k i y V.I., B u l k i n a I.G. Infekcion kasalliklar bilan bemorlar parvarishi va epidemiologiya asoslari. Toshkent. Ibn Sino, 1990.
2. S h o v a h o b o v Sh.Sh. Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari, Toshkent, Ibn Sino, 1997.
3. M a j i d o v V.M. Yuqumli kasalliklar, Toshkent, Ibn Sino, 1993.
4. V a f o q u l o v S.X., X o d i y e v X.X., B o y j o n o v A.Q., Y o r m u h a m e d o v a M.K. Yuqumli kasalliklar fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2001.
5. G e n i s D.E. Meditsinskaya ħarazitologiya, Moskva, «Meditsina», 1991
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Yuqumli\\_kasalliklar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Yuqumli_kasalliklar)
7. <https://yuz.uz/uz/news/yuqumli-kasalliklarning-oldini-olishda-yagona-vosita--emlashdir>
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Shifoxona\\_ichki\\_infeksiyalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Shifoxona_ichki_infeksiyalar)
9. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/shifohona\\_ichki\\_infekciyalarini\\_profilaktika\\_qilish\\_kuchaytiriladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/shifohona_ichki_infekciyalarini_profilaktika_qilish_kuchaytiriladi)
10. <https://xs.uz/uz/post/kasallik-tarqalishiga-qarshi-kurashishning-yangi-bosqichi>